

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
“QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT” FAKULTETI
«QISHLOQ XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT»
KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.KOMOLOV _____

«___» _____ 2016 y.

«HIMOYAGA RUXSAT eTAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.MAXMUDOV _____

«___» _____ 2016 y.

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI

MUSAEV DILXUSHNING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA ASOSIY
VOSITALAR HISOBI VA AUDITI.

BMI rahbari:

katta o'qituvchi:

R.Yuldashev

Ilmiy maslahatchi:

i.f.n, dotsent

E.Mo'ydinov

Bajaruvchi:

D.Musaev

ANDIJON – 2016
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
“IQTISODIYOT VA BOSHQARUV” FAKULTETI
“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

«___» _____ 20___ yil.

**Kunduzgi bo'lim “Buxgalteriya
hisobi va audit” ta'lim yo'nalishining
4-bosqich talabasi Dilxush Musaevning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2015 yil 18-sentyabrdagi №240-ST (a) sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2.BMIning mavzusi:** *“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalar hisobi va auditi.*
- 3.Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti** 5 may 2016 y.
- 4.Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.*
- 5.Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BHMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda DT “Asakabank” Farxod filialining 2013-2014 va 2015 yillardagi yig'ma va yillik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 6 ta jadval, 5 ta rasm, 25 uzatma tuzilib, ulardan 5 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari	Asosiy qismlarni bajarish vaqti	Rahbar unvoni, F.I.SH.	Imzo
Kirish	10.10.2015 01.11.2015	kat.o'qit. R.YUldashev	
I-BOB Tijorat banklarida asosiy vositalar hisobi va auditini nazariy-uslubiy asoslari.			
1.1.Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.	16.11.2015 01.12.2015	kat.o'qit. R.YUldashev	
1.2 .Tijorat banklarida asosiy voistalarni tutgan o'rni va ahamiyati.	16.12.2015 01.01.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
1.3.Asosiy vositalar hisobi va audit qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari.	16.01.2016 01.02.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
II-BOB. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni hisobga olinishini amaliy jixatlari.			
2.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansga kirim qilish hisobi.	02.02.2016 16.02.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
2.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobi.	17.02.2016 28.08.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
2.3.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi.	01.03.2016 17.03.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
III-BOB. DT «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mulk solig'i hisobi, inventarizatsiyadan va auditdan o'tkazish tartibi.			
3.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishi tartibi	18.03.2016- 25.03.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
3.2.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash hisobi.	26.03.2016- 01.04.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
3.3.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi.	02.04.2016- 05.04.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
Xulosa	06.04.2016- 10.04.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	
Foydalanilgan adabiyotlar	11.04.2016- 19.04.2016	kat.o'qit. R.YUldashev	

Topshiriq berilgan vaqti: “ ____ ” “ _____ ”201__ yil.

BMI rahbari:

katta o'qituvchi:

Bajaruvchi:

R.YUldashev

D.Musaev

M U N D A R I J A

1.	Kirish	3-6
2.	I-BOB TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.	7-20
3.	1.1.Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.	7-10
4.	1.2 .Tijorat banklarida asosiy voistalarni tutgan o'rni va ahamiyati.	11-16
5	1.3.Asosiy vositalar hisobi va audit qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari.	17-20
6	II-BOB. «ASAKABANK» FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLINISHINI AMALIY JIXATLARI.	21-46
7	2.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansga kirim qilish hisobi.	21-27
8	2.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobi.	28-31
9	2.3.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi.	32-46
10	III-BOB. DT «ASAKABANK» FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALAR BO'YICHA MULK SOLIG'I HISOBI, INVENTARIZATSIYADAN VA AUDITDAN O'TKAZISH TARTIBI.	47-64
11	3.1.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishi tartibi	47-51
12	3.2.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash hisobi.	52-56
13	3.3.«Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi.	57-64
14	Xulosa	65-67
14	Foydalanilgan adabiyotlar	68-72

MAVZU: DT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA ASOSIY

VOSITALAR HISOBI VA AUDITI

I-BOB TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

1.1. Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rnini va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.

1.2. Tijorat banklarida asosiy vositalarni tutgan o'rnini va ahamiyati.

1.3. Asosiy vositalar hisobi va audit qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

II-BOB. «ASAKABANK» FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLINISHINI AMALIY JIXATLARI.

2.1. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansga kiritish hisobi.

2.1. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobi.

2.3. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi.

III-BOB. DT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALAR BO'YICHA MULK SOLIG'I HISOBI, INVENTARIZATSIYADAN VA AUDITDAN O'TKAZISH TARTIBI.

3.1. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishi tartibi

3.2. «Asakabank» Farxod filialida **asosiy vositalarni inventarlash hisobi.**

3.3. «Asakabank» Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzabligi. O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Bank

tizimida tijorat banklari uning muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'lmoqda. Buni Prezidentimiz o'z ma'ruzasida alohida ta'kidlab o'tmoqda: "SHuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

Bank, sug'urta, lizing, konsalting va boshqa turdagi bozor xizmatlari barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ular xususiy sektor va kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes sub'ekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi."¹.

2015 yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real o'sishi 2014 yilga nisbatan 8 foizni va uning nominal hajmi 171,4 trln. so'mni tashkil etdi.

YUqori iqtisodiy o'sish sur'atlari, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari, jumladan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning barcha ichki imkoniyat hamda zaxiralarini izlab topish va safarbar etish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini jadal rivojlantirishga, ichki talabni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va samarali makroiqtisodiy siyosatning yuritilishi hisobiga ta'minlanmoqda.

2015-2019 yillarda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan qator dasturlarda 2015 yil uchun mo'ljallangan vazifa va chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

iqtisodiyotga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar hajmining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qildi.²

Bank tizimida yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar «Tijorat banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi» mavzusini haqiqatda dolzarb ekanligidan dalolat beradi va bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida tanlanishini asoslab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tijorat banklarida asosiy vositalarni hisobi o'z vaqtida hisobga olish va auditini sifatli tarzda qonunchilik talablariga rioya qilingan holda o'tkazish hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar asosiy vazifalar sifatida ko'rib chiqiladi:

- Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini:
- Tijorat banklarida asosiy vositalarni tutgan o'rni va ahamiyatini:
- Asosiy vositalar hisobi va audit qilishning huquqiy-me'yoriy asoslarini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni balansga kirim qilish hisobini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishi tartibini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash hisobini:
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibini o'rganish, tahlil qilish va yakunda xulosa va takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv ishining nazariy asoslari bo'lib, Prezidentimiz I.A.Karimovning farmonlari, qarorlari va

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining saytidan 2016 yil 5-mart kuni olingan.

iqtisodiyotimiz rivojlanishiga bag'ishlangan asarlari, Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasiining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar va ko'rsatmalari shuningdek, taniqli mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarining ilmiy nashrlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda Davlat tijorat "Asakabank" Farxod filiali ob'ekt sifatida tanlab olingan. Bitiruv malakaviy ishini amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash maqsadida yuqoridagi bank ma'lumotlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari, bitiruv malakaviy ishining ob'ekti hamda ishning tarkibi va tuzilishi yoritilgan.

Birinchi bobda tijorat banklarida asosiy vositalar hisobi va auditini nazariy-uslubiy asoslari deb nomlangan bo'lib, unda respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari, tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari va asosiy vositalarni audit qilishning huquqiy asoslari, ahamiyati va vazifalari kenga yoritilgan.

Ikkinchi bob bevosita amaliyotga bog'lanagan bo'lib, davlat tijorat "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni balansga qabul qilish va balansdan chiqarish tartibi va hisobi, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi va asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishi tartibi atroflicha o'rganilgan.

Uchinchi bob ham bevosita amaliyotga bog'lanagan bo'lib, "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash hisobi, asosiy vositalarni auditdan o'tkazish tartibi va asosiy vositalar bo'yicha o'tkazilgan auditini rasmiylashtirish tartibi keng taxlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida mavzu bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan hamda uni amaliyotga tadbiq qilish yo'llari keltirilgan.

I-BOB TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

1.1 Tijorat banklarining milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.

Hukumatimiz tomonidan amalda joriy etilgan mexanizm bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan

qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi.

“Respublikamiz bank-moliya tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini o'stirish ularning investitsiyaviy faoliyatni kuchaytirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jixozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan kreditlar xajmlarini ko'paytirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

SHuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

SHuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi,

qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman".³

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25-aprel kungi N 216-I-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" qonuning 4-moddasida "Bank operatsiyalari" quyidagicha keltirilgan:

1. jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
2. omonatlarni jalb etish;
3. kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:

1. mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;
2. chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
3. pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
4. uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
5. uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;
6. qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
7. bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

8. jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;
9. moliyaviy lizing;
10. xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emaslar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" deb nomlangan majlisidagi ma'ruzasida "So'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi" deb ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari dunyoning yetkachi xalqaro agentliklari tomonidan ijobiy reyting baholari bilan baholanmoqda.

1.1.1-javdal.

**“Xalqaro reyting agentliklari tomonidan tijorat banklariga berilgan
reyting baholari to'g'risida 2014 yil 25 dekabr holatiga ma'lumot”**

№	Banklar nomi	Reyting agentligi nomi	Reyting bahosi
1	TIF Milliy banki	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror» «Barqaror»

2	Asakabank	«Mudis» «Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
3	Xalq banki	«Standart end Purs»	«Barqaror»
4	O'zsanoatqurilishbank	«Standart end Purs» «Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
5	Qishloq qurilish bank	«Mudis»	«Barqaror»
6	Agrobank	«Fitch Reytings» «Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
7	Mikrokreditbank	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
8	Ipoteka-bank	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror» «Barqaror»
9	Aloqabank	«Mudis»	«Barqaror»
10	Ipak Yo'li banki	«Fitch Reytings» «Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
11	Aziya Al'yans bank	«Mudis»	«Barqaror»
12	Turonbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
13	Hamkorbank	«Mudis»	«Barqaror»
14	Kapital bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
15	KDB Bank O'zbekiston	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
16	O'T-bank	«Mudis»	«Barqaror»
17	Savdogarbank	«Mudis»	«Barqaror»
18	Trast bank	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
19	Universal bank	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
20	Davr bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
21	Invest Finans bank	«Mudis»	«Barqaror»
22	Xay Tek bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
23	Oriyent Finans bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
24	Turkiston bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
25	Ravnaq bank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
26	Eron Soderot bank	«Ekspert RA»*	«Barqaror»

1.2 Tijorat banklarida asosiy voistalarni tutgan o'rni va ahamiyati.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirishlarida, albatta, birinchi navbatda, moddiy bazasini yaratishlariga katta e'tibor qaratadilar. Shular qatorida, tijorat banklari ham o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida asosiy vositalar bilan to'liq ta'minlanishga harakat qiladilar.

Banklar uchun asosiy vositalar eng muhim moddiy asos bo'lib, ularning faoliyati bevosita ularga bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyatini amalga oshirishda bank binosi va boshqa asosiy vositalarini shakllantirgandan so'nggina ish boshlaydilar.

SHu boisdan, tijorat banklarida asosiy vositalardan foydalanish va ularning budligini ta'minlash hamda asosiy vositalarining harakatini buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun tijorat banklarida foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarning turkumlanishi, qayta baholanishi va ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida, asosiy vositalar to'g'risida to'liq ma'lumot va tushunchaga ega bo'lishni talab qiladi.

Asosiy vositalar deb, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida foydalanadigan, shuningdek, uzoq muddatli ijaraga beriladigan va uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xizmat qiladigan vositalarga aytiladi.

SHuningdek, asosiy vositalar ilmiy asoslangan holda o'zining xususiyatlaridan kelib chiqib alohida turkumladi. SHu boisdan, asosiy vositalar tarmoh belgilariga, tayinlanishiga, turlariga, qaysi sohaga tegishli ekanligiga va foydalanishiga ko'ra turkumlanadi. Asosiy vositalarni tarmoq belgilariga qarab guruhlash (sanoat, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi va boshqalar) har bir tarmoqqa tegishli asosiy vositalarning qiymati to'g'risida aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Tayinlanishiga ko'ra, asosiy vositalar asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, boshqa tarmoqlardagi asosiy ishlab chiqarish vositalari va noishlab chiqarishdagi asosiy vositalardan tashkil topadi. Asosiy vositalar turlariga ko'ra, binolar va inshootlar; uzatuvchi moslamalar; mashina va asbob-uskunalar; transport vositalari; asbob- uskunalar; ishlab chiqarish inventarlari va buyumlar; xo'jalik inventarlari; ish va mahsuldor hayvonlar; ko'p yillik daraxtlar; yerlarni yaxshilashga sarflangan kapital sarflar va boshqa asosiy vositalar kabilarga guruhlanadi. SHuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalarga sarflangan kapital qo'yilmalar ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Asosiy vositalarni

turlari bo'yicha turkumlashdan ko'zlangan asosiy maqsad ularning analitik hisobini tashkil qilishdir.

Kimga tegishligiga qarab, asosiy vositalar o'ziga tegishli va ijaraga olingan asosiy vositalarga, foydalanish belgilariga qarab esa, asosiy vositalar foydalanishdagi, rekonstruktsiyadagi va qayta qurollantirishdagi asosiy vositalarga bo'linadi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshlang'ich qiymati; tiklanish qiymati; qoldiq qiymat; tugatish qiymati bo'yicha baholanadi. Ayrim hollarda ular qayta baholanishi mumkin.

Asosiy vositalar balansda birinchi marta aks ettirilgandan keyin, haqiqiy qiymati bo'yicha davriy ravishda qayta baholab borilishi, qayta baholangandan keyin, asosiy vositalar ob'ekti qayta baholash kunidagi uning haqiqiy qiymati bo'yicha hisobga olinishi lozim. Asosiy vositalarning alohida ob'ektlari qiymati qayta baholanayotganda, ushbu aktiv guruhiga kiruvchi boshqa barcha aktivlar ham qayta baholanadi. Qayta baholash bank tomonidan mustaqil ravishda yoki qonunchilikka muvofiq, baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan malakali baholovchi-ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarni qayta baholashda quyidagi usullardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi: indeks usuli; to'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usuli.

Indeks usuli - bu asosiy vositalarning balans qiymati va qayta baholash kunidagi shu aktivlar bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiyasining ma'lum indeksidan foydalangan holda amalga oshirilishidir. Bunda, aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg'arilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi hamda o'rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya hisobi yozuvlari amalga oshiriladi.

SHuningdek, asosiy vositalarni qayta baholashning indeks usulida ularning alohida guruhi bo'yicha aktivlarni sotib olish davridan kelib chiqib, har xil indekslar qo'llanilishi mumkin. Bunda, to'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usulidan foydalanilganda, asosiy vositalarning to'liq tiklanish qiymati alohida ob'ektlar

qiymatini, shunga o'xshash yangi ob'ektlarning qayta baholash sanasida shakllangan tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bozor qiymati asosida qayta hisoblash orqali aniqlanadi.


To'g'ridan-to'g'ri usul bilan asosiy vositalarni qayta baholashda, buxgalteriya hisobida tegishli asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan jamg'arilgan eskirish summasi, shu aktivning qayta baholangandagi tiklanish qiymatini qayta baholungunga qadar bo'lgan balans qiymatiga bo'lish natijasida hosil qilinadigan koyeffitsiyentga ko'paytiriladi. Qayta baholashdan keyin aktivlarning haqiqiy qiymati ularning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi hamda farq summalariga muvofiq buxgalteriya hisobi o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni hisobga olishda buxgalteriya hisobining oldiga qo'ygan asosiy vazifalari quyidagilardan:

- asosiy vositalarni kirim qilish, ichki harakati va ularni hisobdan chiqarish vaqtida tegishli hujjatlarga asosan rasmiylashtirish hamda hisob registrlarida aks ettirish;
- asosiy vositalarga eskirish hisoblashda amortizatsiya hisoblashning samarali bo'lgan usullaridan foydalanish va buxgalteriya hisobi registrlarida o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;
- asosiy vositalarning turli xil chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy natijalar to'g'ri aniqlash;
- asosiy vositalar bo'yicha mulk solig'i to'lovlari miqdorini to'g'ri hisoblash va ularni belgilangan muddatlarda soliq idorlariga o'tkazib berish;
- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari va ularni qoplash manbalarini belgilash hamda ulardan samarali foydalanishni nazorat qilish;
- asosiy vositalarning naqliligi va ularning harakati to'g'risidagi statistik hamda buxgalteriya hisobida talab qilingan ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratish va x.k.

Tijorat banklarida banklarda asosiy vositalar hisobi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi yo'riqnomaga va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi"ga asosan amalga oshiriladi.

asosiy vositalar - bu:



1.2.1-rasm.Asosiy vositalarga ta'riflar.

Asosiy vositalarga

- binolar, inshootlar;
- asbob-uskuna va priborlar;
- kompyuterlar, mebel
- hisoblash texnikasi
- transport vositalari
- foydalanish huquqlarida xarid qilingan yer
- kutubxona fondi
- qurishda bino qiymatiga kiritilmagan signalizatsiya
- telefonizatsiya ob'ektlari.

1.1.1-javdal

“Schyotlar rejasida asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar turlari”

№	Hisob raqamlar nomi
16500	ASOSIY VOSITALAR
16501	- yer
16505	- Tugallanmagan qurilishlar
16509	- Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlar
16511	- Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16515	- Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi
16519	- Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16529	- Transport vositalari
16531	- Transport vositalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16535	- Mebel, moslama va jihozlar
16539	- Nakoplenный iznos - Mebel, prisposobleniya i oborudovaniye (kontr-aktivnyy)
16541	- To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari
16543	- To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16549	- Boshqalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar
16551	- Boshqalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16561	- Ombordagi asosiy vositalar
16563	- Ombordagi asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

boshlang'ich (haqiqiy) qiymat - to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'imlarini, shuningdek aktivni undan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning haqiqiy summasi. Boshlang'ich qiymat shuningdek, bank aktivni xarid qilish chog'ida yoki ushbu aktivdan asosiy bo'lmagan faoliyat maqsadlarida muayyan davr mobaynida foydalanish natijasida unga nisbatan majburiyatni o'z zimmasiga olgan dastlabki taxmin qilingan aktivni demontaj qilish va yo'qotish yoki aktivni tiklash xarajatlari bahosini o'z ichiga oladi.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati ularning haqqoniy qiymatini qayta baholash sanasida aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan qayta baholanadi;

balans qiymati - aktiv buxgalteriya balansida jamlangan amortizatsiyasi hamda qiymatining tushishidan yig'ilgan zararlar chegirilgandan so'ng tan olinadigan summa;

tugatish qiymati - bank mazkur paytda aktivning chiqib ketishidan chiqib ketish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar chegirilgandan so'ng oladigan, agar aktiv eskirgan va kutilayotgandek holatda bo'lsa, uning foydali xizmat muddati oxirida olinishi kutilayotgan summa;

haqqoniy (real) qiymat - aktivning joriy bozor qiymati yoki baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadigan qiymati;

foydali xizmat muddati-bank aktivdan foydalanishni kutayotgan (hisob-kitob) davr yoki bank ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan ishlar va xizmatlar miqdori;

amortizatsiya (eskirish) - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini bank xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

amortizatsiyalanadigan qiymat - aktivning tugatish qiymatini chegirgan holda moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi;

qiymatni tushishidan zarar - aktivning balans qiymati uning to'lanadigan qiymatidan oshadigan summa;

foydalanish qiymati (qimmati) - aktivdan foydalanishni davom ettirishdan va uning foydali xizmat muddati oxirida chiqib ketishidan kutilayotgan taxmin qilinayotgan kelgusidagi pul oqimlarining diskontlangan qiymati;

1.3 Asosiy vositalar hisobi va audit qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Respublikamiz tijorat banklarida buxgalteriya hisobi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunlarga va Markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Banklar tizimida buxgalteriya hisobini yuritish ishini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo'lga qo'yilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Buning buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini yaxshi bilishlari talab qilinadi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi.

Tijorat banklari tomonidan buxgalteriya hisobi, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab, qayta tashkil etilguncha yoki tugatilguncha qadar uzluksiz ravishda yuritiladi.

Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qat'iy rioya qilishlari zarur.

Tijorat banklarida hisob-kitob ishlari ular vujudga kelgan davrdan boshlab amalga oshiriladi. Hisob-kitob ishlari davrlar osha rivojlanib, takomillashib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni takomillashtirishda bir qancha amaliy ishlar amalga oshirildi.

Tijorat banklari buxgalteriya hisobini takomillashtirish ilg'or chet el tajribalaridan foydalangan holda va respublikamiz qonunlariga asosan amalga oshirilmoqda. Jumladan, banklarda buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga muvofiq olib borilmoqda. Bu esa banklarni rivojlanishia muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

SHunisi ahamiyatliki, banklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishi buxgalterlarga bog'liq. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda buxgalter-xodimlar o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondoshishlari lozim.

Tijorat banklarida hisob-kitob ishlari amalga oshirilar ekan, asosiy e'tibor, ularning daromadlari va xarajatlarini hisobini yuritishga katta e'tibor beriladi.

Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlarning hisobi buxgalteriya “Balans hisoboti” va “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotlarida aks ettiriladi.

Tijorat banklarini iqtisodiyotda tutgan o’rnini aniq belgilab va izohlab bergan taniqli olim O.I.Lavrushin hisoblanadi. Lavrushin o’z izlanishlarida daromadlar va xarajatlarning hisobini yuritishda asosan foizli daromadlar va xarajatlarga alohida ahamiyat berilishi kerakligini aytib o’tadi.⁴

Respublikamizdagi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ma’lum bir me’yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini amalga oshirishdagi asosiy me’yoriy hujjat bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro’yxatga olingan “O’zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to’g’risida”gi yo’riqnoma hisoblanadi.

Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni hisobga olish quyidagi me’yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi:

1. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 3 sentyabrda 1270-son bilan ro’yxatga olingan “Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to’g’risida”gi nizomga asosan bankning hisob siyosati ishlab chiqiladi;
2. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1300-son bilan ro’yxatga olingan “Tijorat banklarida grantlarning buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi nizomga asosan grantlarni hisobi yuritiladi;
3. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1301-son bilan ro’yxatga olingan “Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to’g’risida”gi nizomga asosan xatolarga tuzatishlar kiritiladi;
4. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1431-son bilan ro’yxatga olingan “Tijorat banklarida qimmatbaho metallar, toshlar va tangalarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to’g’risida”gi nizomga asosan buxgalteriya hisobi yuritiladi;

⁴ Lavrushin O.I. “Bankovskoye delo”, Moskva, Finansy i statistika – 2001, 181-bet.

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomaga asosan asosiy vositalar hisobi yuritiladi:
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 30 noyabrda 1528-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida" nizamga asosan moliyaviy aktivlar hisobi yuritiladi:
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 27 dekabrda 1648-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida" nizamga asosan lizing operatsiyalari hisobi yuritiladi:
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 18 yanvarda 1445-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi to'g'risida"gi nizamga asosan hisobotlar shakillantiriladi:
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 3 avgustda 953-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizamga asosan faktoring operatsiyalari yuritiladi:
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 4 noyabrda 982-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida"gi nizamga asosan auditorlik tekshiruvlari o'tkaziladi:
11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 25 noyabrda 405-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizamga asosan ichki auditor lavozimiga talab qo'yilgan.
12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 20 aprelda 992-1-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank

tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi yangi taxrirdagi nizomga asosan ichki auditor lavozimiga talab qo'yilgan.

II-BOB. «ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLINISHINI AMALIY JIXATLARI.

2.1 «Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni balansga kirim qilish hisobi.

O'zbekistonning bugungi iqtisodiy vaziyatida banklar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki banklar hukumatning iqtisodiy siyosatini izchillik bilan va aniq maqsadni ko'zlagan holda amalga oshiradi. Ular bu ishda boshqa har qanday moliyaviy institutlar qaraganda ko'proq yordam bermoqda. Banklar tadbirkorlarga va mahsulot ishlab chiqaruvchilarga kreditlar berish, xilma-xil xizmatlar ko'rsatish

orqali ularga yuqori darajada foyda olish imkoniyatini yaratadi. Ular bu bilan respublikaning butun iqtisodiyotini rivojlantirmoqdalar.

Hozirgi sharoitida banklar iqtisodiyotda pul munosabatlarini tizimli boshqaruvchi yagona sub'ektdir. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida barcha muhim ahamiyat kasb etgan masalalar bank zimmasiga yuklatildi. Yangi tashkil etilayotgan korxonalarni moddiy jihatdan ta'minlash, ya'ni kreditlar berish, naqd pulga bo'lgan ehtiyojini qondirib berish shular jumlasidandir. SHunday ekan, banklar faoliyatini yaxshilash va kengaytirish hamda barqarorligini ta'minlashda banklar foydalar va zararlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarida banklarda asosiy vositalar balansga kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi yo'riqnomaga va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi"ga asosan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni birlamchi aks ettirish va hisobga olish

Haq evaziga sotib olingan asosiy vositalar balansda ularning boshlang'ich qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Asosiy vositalar 5 xil natijasida bank balansiga kiritiladi:



2.1.1-rasm. Asosiy vositalarni balansga kirim qilinishi.

Haq evaziga sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga quyidagi xarajatlar kiritiladi:

- ❖ aktivlarni yetkazib beruvchilarga hamda shartnoma bo'yicha qurilish-montaj ishlarini bajarganlik uchun pudratchilarga to'lanadigan summalar;
- ❖ asosiy vositalar ob'ektiga doir huquqni sotib olish (olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish yig'implari, davlat bojlari (bojxona bojlari, yig'implari va sh.k.) va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;
- ❖ asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig'implar summolari (agar ular qoplanmasa);
- ❖ asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) bilan bog'liq axboriy va maslahat xizmatlari uchun to'langan summalar;
- ❖ asosiy vositalar ob'ektlarini yetkazib berish xatarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;
- ❖ asosiy vositalar ular orqali sotib olingan vositachilarga to'lanadigan haqlar;
- ❖ asosiy vositalarni o'rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;
- ❖ aktivdan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar.

CHet el valyutasida sotib olingan asosiy vositalar balansda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasidagi Markaziy banki kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi va chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan qayta baholanmaydi.

Barpo etilgan (qurilgan) asosiy vositalar dastlab balansda qurilishning haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi.

I). Asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalar, bino (inshootlar)ni qurilishi (rekonstruktsiyasi) bilan bog'liq bo'lgan loyiha-qidiruv ishlari, qurilish materiallari, mehnat, xarajatlar hamda asosiy vositalar sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa kapitallashtiriladigan xarajatlar qiymatini to'liq yoki qisman oldindan to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Misol: «Asakabank” Farxod filiali 2015 yil 2 fevral kuni “Evrolyuks” mas'uliyati cheklangan jamiyatidan 4 dona 5 000 000 so'mga kompyuter sotib oldi.

Dt	A	19909	«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar	5 000 000
Kt	P	20208	“Evrolyuks” mas'uliyati cheklangan jamiyati	

Sotib olingan bino (inshoot) balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	5 000 000
Kt	A	19909	«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar	

«Asakabank” Farxod filiali 2015 yil 2 fevral kuni “Evrolyuks” mas'uliyati cheklangan jamiyatidan 4 dona 5 000 000 so'mga kompyuter sotib olinib agar omborga kirim qilsa:

Dt	A	16561	«Ombordagi asosiy vositalar»	5 000 000
Kt	A	19909	«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar	

II) Tuganllanmagan asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish

2) **“Asakabank”** Farxod filiali 2015 yil 10 mart kuni “Savdogrant” mas’uliyati cheklangan jamiyatidan 1 dona 150 000 000 so’nga qurilishi tugallanmagan bino sotib olingan. Sotib olingan, rekonstruktsiya qilinishi talab qilinadigan binolar rekonstruktsiya tugallangunga qadar 16505-“Tugallanmagan qurilish” hisobvarag’ida alohida shaxsiy hisobvaraqlar bo’yicha hisobga olinadi.

Dt	A	16505	«Tugallanmagan qurilish»	150 000 000
Kt	A	19909	«Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar»	

2.1) «Asakabank» Farxod filiali 2015 yil 10 mart kuni “Savdogrant” mas’uliyati cheklangan jamiyatidan 1 dona 150 000 000 so’nga qurilishi tugallanmagan bino foydalanishga tayyor holga kelganda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomalari asosida 200 00 000 so’mni tashkil qildi.

Dt	A	16509	«Binolar va boshqa qurilgan imoratlar»	200 000 000
Kt	A	16505	«Tugallanmagan qurilish»	

“Asakabank” Farxod filiali 2014 yil 10 dekabr kuni “Standart” xususiy firmasidan 2 dona 3 000 000 so’nga kompyuter sotib oldi. Bank moddiy aktivlarni kirim qilgandan so’ng to’lovni amalga oshirdi, kirim hujjatlari asosida quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari amalga oshiriladi:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	3 000 000
Kt	P	29802	«Tovar-moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar»	

Asosiy vositalarni omborga kirim qilish:

Dt	A	16561	«Ombordagi asosiy vositalar»	3 000 000
Kt	P	29802	«Tovar-moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar»	

aktivlar qiymati to’langanda:

Dt	P	29802	«Tovar-moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar»	3 000 000
Kt	P	20208	“Standart” xususiy firmasi	

III). Tekinga olingan asosiy vositalarni hisobga olish

3) “Asakabank” Farxod filiali 2014 yil 10 dekabr kuni “Standart” xususiy firmasidan 2 dona 5 000 000 so'mga kompyuter tekinga olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi rasmiylashtiriladi. Tekinga olingan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatiga:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	5 000 000
Kt	P	45994	«Boshqa foizsiz daromadlar»	

Subsidiyaga asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish

4) “Asakabank” Farxod filialiga asosiy vositalar subsidiya ko'rinishida olinganda quyidagi o'tkazma bajariladi:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	5 000 000
Kt	P	22896	«Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»	

5) Tijorat banklari tomonidan banklarga faoliyatidan kelib chiqib foyda solig'idan turli imtiyozlar beriladi. Agar banklar (amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga soliqlar to'lashdan ozod qilingan) soliq solishdan bo'shatilgan mablag'lar hisobiga bank infratuzilmasini rivojlantirish doirasida asosiy vositalarni xarid qilib, ularning qiymatini 30903-»Umumiy zaxira fondi« balans hisobvarag'ining «Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar» shaxsiy hisobvarag'iga kiritgan bo'lsalar, quyidagi teskari o'tkazma amalga oshiriladi:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	5 000 000
Kt	P	30903	«Umumiy zaxira fondi»	

IV). Garovga egalik huquqini qo'llash (garovga qo'yilgan mol-mulkni undirish) yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olish

Agar garov ta'minota ostida kredit olgan qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmasa, bank garovga nisbatan o'z huquqini qo'llashi va uni sotishi yoki o'z mulkiga (egaligiga) olishi mumkin. Undirilgan garovga qo'yilgan mol-mulk dastlab sotish uchun mo'ljallangan undirilgan mol-mulk va boshqa ko'chmas mulkni hisobga olish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq aks ettiriladi.

Bank undirilgan mol-mulkni o'z asosiy vositalari sifatida ishlatishga qaror qilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari aks ettiriladi:

Dt	A	16529	Transport vositalari	50 000 000
Kt	A	16701	«Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mulk»	

Quyida "Asakabank" Farxod filialining 2014 yil va 2015 yil 1 yanvar xolatiga asosiy vositalarni balansdagi qiymatlarini taxlil qilamiz.

2.1.1-jadval.

**“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni balans qiymati
to'g'risida ma'lumot.**

№	2016 yil 1 yanvar xolatiga		2015 yil 1 yanvar xolatiga		2014 yil 1 yanvar xolatiga	
	boshlang'chi	eskirish	boshlang'chi	eskirish	boshlang'chi	eskirish
16 515	235 635,4	0,0	235 635,4	0,0	235 635,4	0,0
16 519	0,0	175 050,7	0,0	127 923,7	0,0	80 796,6
16 529	29 687,1	0,0	29 664,0	0,0	45 871,6	0,0
16 531	0,0	6 927,0	0,0	988,8	0,0	33 275,3
16 535	551 855,6	0,0	544 564,6	0,0	473 813,1	0,0
16 539	0,0	348 565,5	0,0	337 043,9	0,0	267 772,7
16 541	43 648,8	0,0	43 648,8	0,0	43 648,8	0,0
16 543	0,0	43 317,3	0,0	39 082,7	0,0	34 422,8
16 549	548 199,1	0,0	451 025,0	0,0	294 951,2	0,0
16 551	0,0	282 665,2	0,0	210 000,1	0,0	157 294,1
jami	1 409 026,01	856 525,67	1 304 537,84	715 039,22	1 093 920,10	573 561,57

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni 2016 yil 1 yanvar xolatiga jami boshlang'ich qiymati 1409026,01 ming so'm bo'lsa, eskirish qiymati 856525,7 ming so'mni tashkil qilgan.

2015 yil 1 yanvar xolatiga jami boshlang'ich qiymati 1304537,8 ming so'm bo'lsa, eskirish qiymati 715039,2 ming so'mni tashkil qilgan.

2014 yil 1 yanvar xolatiga jami boshlang'ich qiymati 1093920,1 ming so'm bo'lsa, eskirish qiymati 573561,6 ming so'mni tashkil qilgan.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni 2016 yil 1 yanvar xolatiga jami boshlang'ich qiymati 1409026,01 ming so'm bo'lsa, 2015 yil 1 yanvar xolatiga jami boshlang'ich qiymati 1304537,8 ming so'mni tashkil qilgan yoki 2016 yilga kelib 2015 yilga nisbatan 104488,2 ming so'mga ortgan.

Eskirish qiymati 2016 yilda 856525,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yildad 715039,2 ming so'm bo'lgan, yoki 141486,5 ming so'mga ortgan.

2.1.2-jadval.

“Asakabank” Farxod filialini 2015 va 2016 yil 1 yanvar xolatiga asosiy vositalarni balans qiymatilari o'rtasida farqi.

№	2016 yil 1 yanvar xolatiga		2015 yil 1 yanvar xolatiga		2016 yil 1 yanvar xolatini 2015 yil 1 yanvar xolatiga nisbati	
	boshlang'chi	eskirish	boshlang'chi	eskirish	boshlang'chi	eskirish
16 515	235 635,4	0,0	235 635,4	0,0	0,0	0,0
16 519	0,0	175 050,7	0,0	127 923,7	0,0	47 127,1
16 529	29 687,1	0,0	29 664,0	0,0	23,0	0,0
16 531	0,0	6 927,0	0,0	988,8	0,0	5 938,2
16 535	551 855,6	0,0	544 564,6	0,0	7 291,0	0,0
16 539	0,0	348 565,5	0,0	337 043,9	0,0	11 521,6
16 541	43 648,8	0,0	43 648,8	0,0	0,0	0,0
16 543	0,0	43 317,3	0,0	39 082,7	0,0	4 234,5
16 549	548 199,1	0,0	451 025,0	0,0	97 174,1	0,0
16 551	0,0	282 665,2	0,0	210 000,1	0,0	72 665,1
Jami	1 409 026,01	856 525,67	1 304 537,84	715 039,22	104 488,2	141 486,5

2.1 “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobi.

Hozirgi kunda respublikamizda tijorat banklarining oʻrni kuchayib bormoqda. Tijorat banklari yuqori daromad olish maqsadida oʻz faoliyat doirasini kengaytirmoqdalar. Ular oʻz aktivlarini toʻgʻri joylashtirish va daromad olishning boshqa imkoniyatlarini qidirib topishga xarakat qilmoqdalar.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni balansdan chiqim qilish hisobi Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan roʻyxatga olingan «Oʻzbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida»gi yoʻriqnomaga va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan roʻyxatga olingan “Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi”ga asosan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar ob’ektlarining chiqib ketishi yoki sotilishidan yuzaga keladigan foyda yoki zararlar aktivning chiqib ketishi yoki sotilishidan olingan sof tushum bilan uning sof balans qiymati oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadi. CHiqib ketish yoki sotishdan olinadigan foyda yoki zararlar aktiv hisobdan chiqarilgan paytda foyda va zararlar toʻgʻrisidagi hisobotda aks ettiriladi.

Asosiy vositalar balansdan quyidagilar natijasida hisobdan chiqariladi:



2.2.1-rasm. Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi.

1) “Asakabank” Farxod filiali 2014 yil 10 dekar kuni “Standart” xususiy firmasidan 2 dona 3 000 000 so’mga kompyuter sotib olgan. 2016 yil yanvar oyida sotishni rejalashtirdi.

Boshlang’ich qiymati 3 000 000 so’m.

Eskirish qiymati 1 000 000 so’m

Qoldiq qiymati 2 000 000 so’m.

“Turon” xususiy firmasiga 2 100 000 so’mga sotdi.

Avval qoldiq qiymati boshlang’ich qiymati bilan yopiladi.

Dt	A	16539	Mebel, moslama va jihozlar-eskirish qiymati	1 000 000
Kt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	

mazkur asosiy vositalar ob’ekti bo’yicha qayta baholangan summasi 30908-hisobvaraqlar yopiladi.

Dt	P	30908	Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi	500 000
Kt	P	31203	«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»	

Hisobdan chiqariladigan asosiy vositalar sotilganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari bajariladi:

agar to’lov xaridorlar tomonidan asosiy vositalar olingandan so’ng amalga oshirilgan holda:

Dt	A	19909	«Olinadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar uchun»	2 100 000
Kt	P	45909	«Asosiy vositalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda»	100 000
Kt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	2 000 00

agar to’lov xaridorlardan kelib tushganda:

Dt	P	20208	“Turon” xususiy firmasi	2 100 000
Kt	A	19909	«Olinadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar uchun»	

To'lov kelib tushgandan keyingi asosiy vositalar berilganda buxgalteriya yozuvlari:

Dt	P	20208	«Turon» xususiy firmasi	2 100 000
Kt	P	29802	«To'lanadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar va xizmatlar uchun»	

Avval qoldiq qiymati boshlang'ich qiymati bilan yopiladi.

Dt	A	16539	Mebel, moslama va jihozlar-eskirish qiymati	1 000 000
Kt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	

mazkur asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha qayta baholangan summasi 30908-hisobvaraq yopiladi.

Dt	P	30908	Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi	500 000
Kt	P	31203	«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»	

agar sotish narxi asosiy vositalarning qoldiq qiymatidan katta bo'lsa:

Dt	P	29802	«To'lanadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar va xizmatlar uchun»	2 100 000
Kt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	2 000 000
Kt	P	45909	«Asosiy vositalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda»	100 00

agar sotish narxi asosiy vositalarning balans qiymatidan kichik bo'lsa:

Dt	P	29802	«To'lanadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar va xizmatlar uchun»	900 000
Dt	A	55902	«Bank asosiy vositalarini sotish va dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar»	100 000
Kt	A	19909	«Olinadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar uchun»	2 000 000

Asosiy vositalarning bosh bank va uning filiallari o'rtasidagi harakatini hisobga olish

Asosiy vositalar bosh bankdan filialga berilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bajariladi:

«Asakabank» bosh bank 5 dona boshlang'ich qiymati 15 000 000 so'm, eskirish qiymati 5 000 000 so'm va qoldiq qiymati 10 000 000 so'mlik kompyuterlarni «Asakabank» Farxod filialiga 2013 yil 10 fevral kuni sotdi.

1) bosh bankda:

Dt	A	16104	«Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar va xizmatlar»	15 500 000
Dt	P	30908	«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi»	500 000
Dt	P	16539	Mebel, moslama va jihozlar-eskirish qiymati	5 000 000
Kt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	10 000 000

2) filial tomonidan asosiy vositalar balansga kiritilganda:

Dt	A	16535	Mebel, moslama va jihozlar	15 500 000
Kt	P	16539	Mebel, moslama va jihozlar-eskirish qiymati	5 000 000
Kt	P	30908	«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi»	500 000
Kt	P	22205	«Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar va xizmatlar»	10 000 000

2.3 “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashi va qayta baholash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- ← er uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob’ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- ← mahsuldor chorva mollari;
- ← kutubxona fondi;
- ← muzey qimmatliklari (muzey ashyolari);
- ← qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar;
- ← arxitektura yodgorliklari;
- ← umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;
- ← qiymati ilgari to‘liq chegirilgan mol-mulk;
- ← asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlariga taqsimlanadi:

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo‘llash orqali, biroq ushbu Kodeksda belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani ushbu moddada belgilanganidan pastroq va soliq to‘lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan normalar bo‘yicha hisoblashga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida ushbu moddada nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

2.3.1-jadval

Mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlar

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya-ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I	Binolar, imoratlar va inshootlar		
	1	Binolar, imoratlar	5
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarining temir yo'llari	
	9	Qirg'oqni mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, tsisternalar, baklar va boshqa sig'imglar	
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	YOpiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	
	14	Bog'larning va hayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II	Uzatish qurilmalari		
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	8
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	
III	Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar		
	1	Issiqlik texnika uskunalari	8
	2	Turbina uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya-ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV	Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)		
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	15
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalari	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalari, raqamli tizimlar uzatish uskunalari, raqamli aloqa o'lchov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va tranking aloqa uskunalari	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash uskunalari	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunalari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunalari	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalari	
	8	Nasoslar	
	9	YUk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalari, tuproq, karer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalari	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagi sig'imler	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalari	
V	Harakatlanuvchan transport		
	1	Temir yo'lining harakatdagi tarkibi	8
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Engil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	10
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	20
	9	Boshqa transport vositalari	

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya-ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
VI	Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari		
	1	Kompyuterlar	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII	Boshqa guruhlariga kiritilmagan asosiy vositalar		
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar ob'ektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar ob'ektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning ushbu moddada tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo'lgani singari amalga oshiriladi.⁵

Tijorat banklarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash, foydalanishga berilgan hisobot oyining 15-sanasi gacha bo'lganda, oyning 1 -sanasi dan, agar 15-sanadan keyin bo'lsa, keyingi oyning 1-sanasi dan boshlab hisoblanadi. Asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan summasi ularning foydali xizmat qilish muddati mobaynidagi oylar bo'yicha mutanosib ravishda bank xarajatlari ga o'tkazilib boriladi. Asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati quyidagicha

⁵ O'zbekiston Respublikasining 25.12.2007 y. O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan 01.01.2008 y.dan e'tiboran amalga kiritilgan "Soliq kodeksi". 95 bet

ikki sababga ko'ra chegaralanadi:

a) **jismoniy eskirishi** - asosiy vositalarning xizmat qilish muddati davomida bank xizmatlarini amalga oshirish jarayoniga o'z qiymatini asta-sekinlik bilan o'tkazib borish xususiyatidir;

b) **ma'naviy eskirishi** - asosiy vositalardan foydalanish jarayonida ularning eskirib borisi yoki zamonaviy takomillashgan turlarining ishlab chiqilishi natijasida mehnat unumdorligi pasayib borishi tuchuniladi.

Ob'ektning foydali xizmat qilish muddati bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmida, yurish ko'rsatkichida (agar avtomobil nazarda tutilsa) o'lchanishi mumkin. Aktivning foydali xizmat qilish muddatini aniqlanishi lozim.

Asosiy vositaning foydali xizmat qilish muddati, uning dastlabki ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan keyingi xarajatlar natijasida uzaytirilishi mumkin va aksincha, texnologik o'zgarishlar yoki xizmat ko'rsatish bozoridagi o'zgarishlar aktivning foydali xizmat qilish muddatini qisqartirishi mumkin. Bunday hollarda foydali xizmat qilish muddati va shundan kelib chiqib, amortizatsiya me'yori joriy va kelgusi davrlar uchun taqsimlanadi.

Aktivning amortizatsiyalanadigan summasi uning boshlang'ich qiymatidan tiklash qiymatini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Amaliyotda, aktivning tugatish qiymati ko'pincha juda kichik miqdorni tashkil etganligi sababli, amortizatsiyalanadigan qiymatni aniqlashda unchalik ahamiyatga ega emas.⁶

Foydalanish muddatining cheklanganligi sababli ushbu asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati butun foydali xizmat muddati mobaynida amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida bank xarajatlariga taqsimlanishi lozim. Asosiy vositalarning xizmat muddati ikki asosiy sabab: jismonan eskirish (aktivlarni ishlatish, ulardan foydalanish natijasi, shuningdek tabiiy omillar ta'siri); ma'nan eskirishi (aktivlar zamon talablariga javob bermaydi) bilan cheklanadi. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari ular foydalanishga topshirilgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblanadi hamda hisobdan chiqarilish vaqtiga

⁶ F. T. Abduvaxidov. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. -T.: 2007, -61 bet

qadar davom ettiriladi. Amortizatsiya xarajatlari aktivning foydali xizmat muddati mobaynida muttasil har oyda aks ettiriladi.

Aktivning foydali xizmat muddati bank uchun ushbu aktivdan olinishi taxmin qilinayotgan foydani baholash yo'li bilan belgilanadi.

Foydali xizmat muddati uning ichida aktiv ishlatiladigan yillarda, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmlarida, yo'l yurishda (agar gap avtomashinalar hakida borsa) o'lchanishi mumkin. Aktivning foydali xizmat muddatini belgilashda quyidagi barcha omillar hisobga olinishi lozim:

1. bank tomonidan aktivni ishlatishning kutilayotgan hajmi, aktivning taxmin qilinayotgan quvvati yoki fizik unumdorligi bo'yicha baholanadi;
2. taxmin qilinayotgan jismonan eskirishi;
3. aktivning ma'nan eskirishi ushbu tur aktivning ishlab chiqarish jarayonining o'zgarishlari yoki takomillashuvi natijasida ma'lum bo'ladi;
4. aktivdan foydalanishdagi yuridik yoki aynan shunga o'xshash cheklovlar, bu foydalanish muddatini cheklash yoki ijara.

Asosiy vositalarning foydali xizmat muddati amalga oshirilgan aktivning foydali xizmat muddatini uzaytiruvchi keyingi xarajatlarni hisobga olgan holda, shuningdek ushbu muddatni qisqartiruvchi texnologik o'zgartirishlarni hisobga olgan holda bank tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Banklar asosiy vositalarning tugatish qiymati va foydali xizmat muddatini hech bo'lmaganda har yilning oxirida qayta ko'rib chiqadilar.

Foydali xizmat muddati asosiy vosita holatini dastlab hisoblangan normativlardan yuqori darajada yaxshilaydigan keyingi xarajatlar natijasida uzaytirilishi mumkin (kapital ta'mirlash, takomillashtirish va shu kabilarda). Va aksincha texnologik o'zgarishlar yoki xizmatlar bozoridagi o'zgarishlar uning foydali xizmat muddatini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu hollarda foydali xizmat muddati va, tegishlicha, amortizatsiya me'yori hisob siyosati va buxgalteriya baholaridagi o'zgarilar bo'yicha MHXS talablariga muvofiq joriy va kelgusi davrlar uchun tuzatiladi.


Aktivning tugatish qiymati ahamiyatli bo'lganda, u xarid sanasida yoki aktivlarning har qanday avvalgi baholanish sanasida belgilanadi. Tugatish qiymati aktivning foydali xizmat muddati oxirida tugatish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar summasiga kamaytirilishi lozim.

Quyidagi omillar amortizatsiya (eskirish) summasini aniqlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- 1) boshlang'ich qiymat;
- 2) tugatish qiymati;
- 3) taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati;
- 4) amortizatsiya (eskirish)ni hisoblash usuli.

Amortizatsiya hisoblash usullari

Amortizatsiya quyidagi usullarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:



2.3.2-rasm. Eskirish hisoblash usullari.

Foydalanilaligan amortizatsiya usuli bank aktivdan olinadigan iqtisodiy foydani iste'mol qiladigan sxemani aks ettirishi lozim. Turli xildagi aktivlarga amortizatsiya hisoblashning turli usullarini qo'llash mumkin. Bunda asosiy vositalarning bir turiga faqat bitta usulni qo'llash lozim.

Eskirish hisoblashning tanlangan usuli hisob siyosatida belgilanishi va bir hisobot davridan boshqasiga izchillik bilan qo'llanishi va yil davomida

o'zgartirilimasligi lozim. Amortizatsiya usulini tanlashda foydalanilayotgan ob'ektning vazifasi va mazkur usulni ushbu ob'ektga nisbatan qo'llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish kerak.

Teng maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli o'zgarmas eskirish (amortizatsiya) summasini teng maromda, asosiy vositalarning foydali xizmat muddati mobaynida ularning qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblashga asoslanadi. Bunda quyidagi formulalarni ishlatish maqsadga muvofiq:

ES =	AQ	x	AXM =	1	x	OYES =	AQ	x
	100	AM;		A	100%;		12 x 100	AM,
				M				

bu yerda:

ES - yillik eskirish summasi;

AQ - aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati;

AXM - aktivning xizmat muddati;

AM - amortizatsiya me'yori;

OYES - oylik eshkirish summasi.

Ushbu usul amortizatsiya faqat foydali xizmat muddatiga bog'liq degan taxminga asoslangan.

Amortizatsiya quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bilan bank xarajatlariga kiritiladi:⁷

Operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha:

Dt	A	56622	Operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalarning eskirish summasi
Kt	P	16551	Boshqalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
		0,0	282 665,2
		0,0	210 000,1
		0,0	72 665,1

“Asakabank” Farxod filialining 2015 yil 1 yanvar xolatiga bino bo'yicha binosini eskirish qoldiq qiymati 127923,7 ming so'm bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar

⁷ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan “O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi yo'riqnoma

xolatiga 175050,7 ming so'mga yetgan. O'rtasidagi farq 47127,0 ming so'mni tashkil qilgan, ushbu summaga quyidagi buxgalteriya uzatmasi beramiz.

Dt	A	56602	Bank binosi va boshqa imoratlarning eskirish summasi
Kt	P	16519	Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

“Asakabank” Farxod filialining 2015 yil 1 yanvar xolatiga transport vositasini eskirish qoldiq qiymati 988,8, ming so'm bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar xolatiga 6927,0 ming so'mga yetgan. O'rtasidagi farq 5938,2 ming so'mni tashkil qilgan, ushbu summaga quyidagi buxgalteriya uzatmasi beramiz.

Dt	A	56610	Transport vositalarining eskirish summasi
Kt	P	16531	Transport vositalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

“Asakabank” Farxod filialining 2015 yil 1 yanvar xolatiga mebel va jihozlarning eskirish qoldiq qiymati 337043,9 ming so'm bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar xolatiga 348565,5 ming so'mga yetgan. O'rtasidagi farq 11521,6 ming so'mni tashkil qilgan, ushbu summaga quyidagi buxgalteriya uzatmasi beramiz.

Dt	A	56614	Mebel va jihozlarning eskirish summasi
Kt	P	16539	Nakoplenный iznos - Mebel, prispособleniya i oborudovaniye (kontr-aktivnyy)

“Asakabank” Farxod filialining 2015 yil 1 yanvar xolatiga to'lov kartochkalarining eskirish qoldiq qiymati 39082,7 ming so'm bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar xolatiga 43317,3 ming so'mga yetgan. O'rtasidagi farq 4234,6 ming so'mni tashkil qilgan, ushbu summaga quyidagi buxgalteriya uzatmasi beramiz.

Dt	A	56616	To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalarining eskirish summasi
Kt	P	16543	To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

Ombordagi asosiy vositalarning eskirishi:

Dt	A	56630	Ombordagi asosiy vositalarning eskirish summasi
Kt	P	16563	Ombordagi asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha eskirishi:

Dt	A	56626	Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha eskirish summasi
Kt	P	16519	Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

Asosiy vositalarni qayta baholanishi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshlang'ich qiymati; tiklanish qiymati; qoldiq qiymat; tugatish qiymati bo'yicha baholanadi. Ayrim hollarda ular qayta baholanishi mumkin.

Asosiy vositalarni qayta baholash asosiy vositalar ob'ektlarining boshlang'ich qiymatini haqqoniy qiymat darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish uchun amalga oshiriladi. Agar haqqoniy qiymat yetarli darajadagi ishonch bilan baholanishi mumkin bo'lsa, banklar bir sinf doirasidagi barcha asosiy vositalarni keyingi jamlangan amortizatsiyasi va qiymatining tushishidan yig'ilgan zararlar chegirilgan holda qayta baholash vaqtida ushbu ob'ektlarning haqqoniy qiymatini aks ettiruvchi qayta baholangan qiymat bo'yicha aks ettiradilar.

Asosiy vositalar alohida ob'ekti qiymatini qayta baholash o'tkazilganda asosiy vositalarning ushbu aktiv tegishli bo'lgan butun sinfi ham qayta baholanishi lozim. Asosiy vositalarning sinfi (guruhi) - bankda foydalanish turi va yo'li bo'yicha bir xil bo'lgan aktivlarning birlashuvi. Asosiy vositalarning bir sinfi tarkibidagi ob'ektlar bir vaqtning o'zida qayta baholanadi.

Bank mulkida, uning xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida bo'lgan barcha asosiy vositalar, shuningdek moliyaviy ijara bo'yicha uchinchi tomonda ijarada (lizingda) bo'lgan mol-mulk, joriy ijara bo'yicha uchinchi tomonga ijaraga

berilgan mol-mulk, ishlab turgan va foydalanilmaydigan mol-mulk, konservatsiyada bo'lgan, hisobdan chiqarishga tayyorlangan, lekin belgilangan tartibda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan mol-mulk, shuningdek tugallanmagan qurilish ob'ektlari va o'rnatish uchun mo'ljallangan uskunalar qayta baholanishi lozim.

Er uchastkalari va tabiatdan foydalanish ob'ektlarining qiymati qayta baholanmaydi.

Qayta baholash bank tomonidan mustaqil ravishda yoki baholovchi tashkilotlarni jalb etgan holda amalga oshiriladi. Asosiy vositalar ob'ektlarining haqqoniy qiymati odatda ularning bozor qiymati hisoblanadi. Agar haqqoniy qiymatni tasdiqlovchi, bozor ma'lumotlariga asoslangan axborotlar mavud bo'lmasa, bank daromadga yoki almashtirishning amortizatsiyalanadigan qiymatiga asoslangan usulni qo'llab haqqoniy qiymatni taxminan baholashi mumkin.

Asosiy vositalar qiymatining tushishi aktivlar qiymatining tushishini hisobga olish bo'yicha MHXS talablariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Qayta baholash usullari

Asosiy vositalarni qayta baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Indeks usuli.

2. Bevosita qayta baholash usuli.⁸

Indeks usuli. Indeks usuli bilan qayta baholashda qayta baholash sanasidagi asosiy vositalarning balans qiymati va ushbu aktivlarning jamlangan eskirishi muayyan indeksdan foydalangan holda qayta baholanadi. So'ngra aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamlangan eskirishi bilan taqqoslanadi va farqqa tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

1) agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan oshsa, bu ko'payish 30908-“Boshlang'ich qiymati”ga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'ida quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

⁸ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 4 dekabrda 1192-son bilan ro'yxatga olingan “1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida”gi nizom.

Dt	A	16509	Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlar
Kt	P	30908	Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi

2) qayta baholashdan oldin va undan keyingi jamlangan eskirish summalari o'rtasidagi farqqa:

Dt	P	30908	Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi
Kt	P	16511	Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

v) qayta baholash natijasida asosiy vosita qiymatining ko'payish summasi xarajat sifatida tan olingan ushbu aktiv qiymatining oldingi arzonlashish summasini qoplashi darajasidagina daromad sifatida tan olinishi lozim;

2) qayta baholash natijasida asosiy vositalarning haqqoniy qiymatining kamayishi xarajat sifatida tan olinadi. Ushbu summa bevosita 30908-»Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'ining tegishli moddasidan, biroq xuddi o'sha asosiy vositaga nisbatan oldingi qo'shimcha baholash miqdori doirasida chegirib tashlanishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bajariladi:

a) qayta baholashdan oldin va undan keyingi jamlangan eskirish summalari o'rtasidagi farqqa:

Dt	P	16511	Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
Kt	P	30908	«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi»

qayta baholashdan oldin va undan keyingi jamlangan eskirish summalari o'rtasidagi farqqa:

Dt	P	30908	«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi»
Kt	A	16509	Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish

3) qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning har bir guruhi bo'yicha ularning xarid qilingan davrlariga bog'liq holda har xil indeks qo'llaniladi.

Ushbu indeks har yili statistika qo'mitasidan tomonidan e'lon qilinadi.

2.2.2-javdal.

2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlar, o'rnatiladigan uskunalar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar qiymatini (ularni xarid qilish, tayyorlash, qurish davrlari bo'yicha) QAYTA BAHOLASH INDEKSLARI*

Asosiy fondlarning guruhlari va kodlari	1990 yilgacha (1990 yil ham kiradi)	1991-2004 y.y.	2005-2013 y.y.	2014 y.	2015 y.			
					I chora k	II chorak	III chorak	IV chorak
1. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish binolari (10000 - 10018)								
M-1 guruhi	1,008	1,064	1,097	1,120	1,101	1,058	1,035	1,015
M-2 guruhi	1,000	1,053	1,086	1,108	1,090	1,047	1,024	1,004
M-3 guruhi	1,000	1,042	1,075	1,097	1,079	1,037	1,014	1,000
M-4 guruhi	1,000	1,032	1,065	1,086	1,069	1,027	1,004	1,000
M-5 guruhi	1,000	1,022	1,054	1,076	1,058	1,016	1,000	1,000
2. Inshootlar (20000 - 20382)								
M-1 guruhi	1,008	1,064	1,097	1,120	1,101	1,058	1,035	1,015
M-2 guruhi	1,000	1,053	1,086	1,108	1,090	1,047	1,024	1,004
M-3 guruhi	1,000	1,042	1,075	1,097	1,079	1,037	1,014	1,000
M-4 guruhi	1,000	1,032	1,065	1,086	1,069	1,027	1,004	1,000
M-5 guruhi	1,000	1,022	1,054	1,076	1,058	1,016	1,000	1,000
3. Uzatish qurilmalari (30000 - 30124)	1,033	1,091	1,125	1,148	1,122	1,065	1,039	1,014
4. Mashinalar va uskunalar								
4.1. Kuch mashinalari va uskunalar (40000 - 40719)	1,018	1,074	1,108	1,131	1,124	1,087	1,031	1,011
4.2. Ishchi mashinalar va uskunalar (41000 - 46119)	1,018	1,074	1,108	1,131	1,124	1,087	1,031	1,011
4.3. Oʻlchov va boshqaruv asbob va qurilmalari, laboratoriya jihozlari	1,018	1,074	1,108	1,131	1,124	1,087	1,031	1,011

Asosiy fondlarning	1990 yilgacha	1991-2004	2005-2013	2014 y.	2015 y.			
(47000 - 47066)								
4.4. Hisoblash texnikasi (48000 - 48010)	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000
4.5. Boshqa mashina va uskunalar (49000 - 49303)	1,018	1,074	1,108	1,131	1,124	1,087	1,031	1,011
5. Transport vositalari (50000 - 50709)								
Engil Avtomobillar	1,057	1,116	1,151	1,174	1,170	1,118	1,030	1,014
Boshqa transport vositalari	1,022	1,079	1,113	1,136	1,129	1,091	1,036	1,013
6. Asbob-Uskunalar (60000 - 60002)	1,000	1,052	1,085	1,107	1,101	1,072	1,035	1,016
7. Ishlab CHiqarish va xo'jalik anjomlari, mebelsiz (70000 - 70002, 70005 - 70012)	1,000	1,052	1,085	1,107	1,101	1,072	1,035	1,016
8. Mebel (70003 - 70004)	1,031	1,089	1,123	1,146	1,142	1,104	1,044	1,024
9. Ishchi va mahsuldor mollar (80000)	1,000	1,000	1,109	1,168	1,173	1,165	1,144	1,084
10. Ko'p yillik ko'chatlar (90000 - 90021)	1,000	1,034	1,066	1,088	1,079	1,056	1,040	1,023
11. Kutubxona fondlari	1,000	1,034	1,067	1,089	1,074	1,041	1,024	1,009
12. Boshqa asosiy fondlar	1,000	1,052	1,086	1,108	1,095	1,062	1,038	1,018
13. Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar	1,013	1,070	1,103	1,126	1,112	1,071	1,035	1,014
14. O'rnatilmagan uskunalar	1,022	1,079	1,113	1,136	1,129	1,091	1,036	1,013

Izoh. Asosiy fondlar kodlari 1990 yilgi Amortizatsiya ajratmalarining yagona me'yorlariga muvofiqlashtirilgan.

Mintaqalar guruhlari:

M-1 guruhi	Toshkent sh.
M-2 guruhi	Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari
M-3 guruhi	Andijon, Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari
M-4 guruhi	Namangan, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari

M-5 guruhi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari
------------	---

Bevosita qayta baholash usuli. Asosiy vositalarning to'liq tiklanish qiymati alohida ob'ektlar qiymatini baholanayotgan aynan o'xshash bo'lgan yangi ob'ektlarning qayta baholash sanasida shakllangan, hujjatlar asosida tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha bevosita qayta hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Bevosita qayta baholash usuli qo'llanilganda ob'ektlarning to'liq tiklanish qiymatini hujjatlar asosida tasdiqlash uchun bankning xohishiga ko'ra quyidagilardan foydalanilishi mumkin:

1) tayyorlovchi tashkilotlar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xom ashyo birjalari, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday aktivga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) qayta baholashni o'tkazish sanasiga va asosiy fondlarni xarid qilish sanasiga MB kurslarining nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsiyentini qo'llagan holda xarid qilish sanasiga eAVda asosiy fondlarning qiymati to'g'risidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida) ma'lumotlar;

3) tegishli davlat organlarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

4) qayta baholashni o'tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

5) asosiy fondlar qiymati to'g'risida baholovchi tashkilotning hisoboti.

30908- "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'ida aks ettirilgan qayta baholashning ijobiy natijasi har oyda 31203-»Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» hisobvarag'iga hisobdan chiqariladi. Bunda quyida buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt		P	30908	«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi»
Kt	Kt	P	31203	«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»

III-BOB. DT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA ASOSIY VOSITALAR BO’YICHA MULK SOLIG’I HISOBI, INVENTARIZATSIYADAN VA AUDITDAN O’TKAZISH TARTIBI.

3.1 “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalar bo’yicha mol-mulk solig’i hisoblanishi va to’lanishi tartibi

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalar bo’yicha mol-mulk solig’ini O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksning 47-bob “YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq” deb nomlangan bo’lib, tijorat banklari ushbu soliq kodeksiga asosan mol-mulk solig’i to’laydilar.

Kodeksning 265-moddasiga asosan YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to’lovchilar quyidagilar keltirilgan:

O’zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo’lgan yuridik shaxslar — O’zbekiston Respublikasining rezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to’lovchilar bo’lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo’limda nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to’lovchilardir;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Kodeksning 266-moddasiga quyidagi mol-mulk soliq solish ob’ektidir:

- ❖ asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo’yicha olingan asosiy vositalar;
- ❖ tugallanmagan qurilish ob’ektlari. Tugallanmagan qurilish ob’ektlari jumlasiga muayyan qurilish ob’ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo’lsa, qurilish boshlanganidan e’tiboran yigirma to’rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi;
- ❖ belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan

ob'ektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish ob'ektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

Soliq kodeksining 267-moddasiga asosan solinadigan baza quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalar bo'yicha — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.
- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

Soliq kodeksining 268-moddasiga asosan solinadigan bazani belgilash tartibi quyidagilardan iborat:

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq kodeksining 269-moddasiga asosan mul solig'i bo'yicha imtiyozlar quyidagilardan iboratligi keltirilgan:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1. kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);
2. madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;
3. sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;
4. tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;
5. umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;
6. konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;
7. soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;
8. shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poyezdlari);
9. tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);
10. telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

11.ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarining.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi kodeksning 271-moddasida quyidagicha keltirilgan:

YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

“Asakabank” Farxod filialida mulk solig'ini o'rtacha yillik qoldiq qiymatni hisoblashda shunga e'tibor berish lozimki, soliq solish ob'ektiga 16509-hisobvarakdan 16549-hisobvaraqqacha, 16700 (bankning o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan boshqa mol-mulki) hisobvaraklardagi qoldiqlar, shuningdek, me'yoriy muddatlarda uriatilmagan uskunalar qiymati (16561-hisobvarak) va belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ekta qiymati (16505-hisobvaraq) kiradi.

Mol-mulkning o'rtacha yillik koldiq qiymati soliq davridagi xar bir oyning oxirgi kunidagi xolatga ko'ra mol-mulkning qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summani 12 oyga bo'lish yo'li bilan aniqlanib, so'ngra olingan natija mol-mulk solig'ining stavkasiga ko'paytiriladi.

3.1.1-jadval.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalar bo'yicha mol-mulk solig'ini hisob-kitobi to'g'risida ma'lumot.

Mazmuni	Qoldiq qiymatlar		Mulk qolig'i		Farqi	
	2015	2016	2015 yil 4%	2016 yil 5%	kam	Ortiq
Boshlang'ich	1 304 537,8	1 409 026,0				0,0
eskirish	715 039,2	856 525,7				
qoldiq	589 498,6	552 500,3	23 579,9	27 625,0		4 045,1

Mol-mulk solig'ini hisoblashda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Dt	A	56714	«Soliqlar (daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar»
Kt	P	22504	«Hisoblangan boshqa soliqlar - to'lanadigan»

O'tkazmalar amalga oshiriladi:

Dt	P	22504	«Hisoblangan boshqa soliqlar - to'lanadigan»
Kt	P	23402	Respublika mablag'lari

Mol-mulkga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

3.2 “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash hisobi.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni inventarlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2-noyabr kungi 833-son bilan ro‘yxatga olingan 19-son BHMS “Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish” nomlangan milliy standartga asosan o‘tkaziladi.

Inventarlashning asosiy maqsadlari mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan qiyoslash, majburiyatlar hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

Mol-mulkni inventarlash uning joylashgan yeri va moddiy javobgar shaxs bo‘yicha o‘tkaziladi.

Quyidagi hollarda inventarlash o‘tkazilishi shart:

- mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, davlat korxonasi o‘zgartirilgan (davlat tasarrufidan chiqarilgan) chog‘da qonunchilikda nazarda tutilgan holda;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23.09.98 yilda 491-son bilan ro‘yxatga olingan «Asosiy vositalar» deb nomlangan 5-son BHMSga muvofiq asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

Bankning asosiy vositalari bir yilda bir marta inventarizatsiyadan o‘tkazilib turiladi va u bank rahbari tomonidan tayinlangan komissiya tarkibiga binoan amalga oshiriladi.

Inventarlashni boshlashga qadar quyidagilarni tekshirish zarur:

- inventar varaqchalari, inventar daftarlari yoki ro‘yxatlarining mavjudligi va qanday holatdaligi;
- texnik pasportlar yoki boshqa texnik hujjatlarning mavjudligi va qanday holatdaligi;
- xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt tomonidan ijaraga, saqlashga va vaqtincha foydalanishga topshirilgan yoki qabul qilingan asosiy vositalarga doir hujjatlarning mavjudligi. Hujjatlar yo‘q bo‘lsa, ularning olinishi yoki rasmiylashtirilishini ta‘minlash zarur.

Buxgalteriya hisobi registrlari yoki texnik hujjatlarda tafovutlar yoxud noaniqliklar topilgan taqdirda ularga tegishli tuzatishlar va aniqlashtirishlar kiritilishi kerak.

Asosiy vositalarni inventarlashdan o'tkazayotganda komissiya majburiy tartibda ob'ektlarni naturada ko'zdan kechiradi va inventarlash ro'yxatlariga ularning to'liq nomi, vazifasi, inventar raqamlari va asosiy texnik yoki foydalanish ko'rsatkichlarini qayd etadi.

Hisobga qabul qilinmagan ob'ektlar, shuningdek, hisob registrlarida ularni tavsiflaydigan ma'lumotlar bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan ob'ektlar aniqlangan taqdirda komissiya inventarlash ro'yxatiga ana shu ob'ektlar bo'yicha yetishmaydigan yoki to'g'ri ma'lumotlarni va texnik ko'rsatkichlarni kiritishi kerak, masalan: binolar bo'yicha - ularning vazifasi, ular qurilgan asosiy materiallar, hajmi (tashqi yoki ichki tomondan o'lchab), maydoni (umumiy foydali maydoni), qavatlar soni (erto'la, yarim yerto'la va hokazolarsiz), qurilgan yili va hokazolar; kanallar bo'yicha - uzunligi, chuqurligi va eni (tubi va yuzasi bo'yicha), sun'iy inshootlar, tubi va yonlarini mahkamlash materiallari, ko'priklar bo'yicha - joylashgan yeri, materiallar turi va asosiy o'lchamlari; yo'llar bo'yicha - yo'l turi (tosh yo'l, profilli yo'l), uzunligi, qoplash materiallari va mashina qatnaydigan eni va hokazolar ko'rsatilishi kerak.

Inventarlashda aniqlangan hisobga olinmagan ob'ektlarni baholash joriy qiymat bo'yicha o'tkazilishi, eskirish esa ob'ektlarning haqiqiy texnik holati bo'yicha belgilanishi, bunda baholash va eskirish to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Inventarlash komissiyasi inventarlash vaqtida aniqlangan hisobga olinmagan ob'ektlar qachon va kimning farmoyishi bilan barpo etilganini, ularni barpo etish xarajatlari qaerga hisobdan chiqarilganini aniqlashi va buni bayonnomada aks ettirishi shart.

Asosiy vositalar ro'yxatga ob'ektning asosiy vazifasiga muvofiq nomlari bo'yicha qayd etiladi. Agar ob'ekt tiklangan, ta'mirlangan, kengaytirilgan yoki

qayta jihozlangan va buning oqibatida uning asosiy vazifasi o'zgargan bo'lsa, u ro'yxatga yangi vazifasiga muvofiq keladigan nom bilan kiritiladi.

Agar komissiya kapital tusda qilingan ishlar (qavat qurish, yangi xonalar qurish va hokazolar) yoki imorat va inshootlarni qisman tugatish (ayrim konstruktiv unsurlarni buzish) buxgalteriya hisobida aks ettirilmagan deb topsa, u tegishli hujjatlar bo'yicha ob'ekt dastlabki qiymatining ko'payish yoki kamayish summasini aniqlashi va ro'yxatda qilingan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirishi kerak.

Ayni vaqtda komissiya bunda aybdor bo'lgan shaxslarni va u yoki bu ob'ektlarni konstruktiv o'zgartirish hisob registrilarida aks ettirilmaganligining sabablarini aniqlashi shart.

Mashinalar, uskunalar va kuch qurilmalari inventarlash ro'yxatlariga yakka tartibda, inventar raqami, tayyorlagan zavodi, chiqarilgan yili, vazifasi, quvvatlari va hokazolar ko'rsatilgan holda kiritiladi.

Bir vaqtda bir tsex yoki bo'limga kelib tushgan va guruh hisobining namunaviy inventar varaqchasida qayd etiladigan bir xil qiymatdagi xo'jalik anjomlari, asboblari, dastgohlar va hokazo bir turdagi buyumlar inventarlash ro'yxatlarida nomlari bo'yicha keltirilib, ushbu buyumlar miqdori ko'rsatiladi.

Asosiy vositalarning inventar ob'ektlariga berilgan raqamlar, qoidaga ko'ra, o'zgarmasligi kerak. Ob'ektlar o'zlarining texnik-ishlab chiqarish vazifasiga ko'ra kiritilishi kerak bo'lgan asosiy vositalar guruhidan boshqa guruhga xato ravishda kiritilgan hollarda, shuningdek, noto'g'ri raqam qo'yilganligi aniqlangan hollarda raqamlar o'zgartirilishi mumkin.

Inventarlash paytida xo'jalik yurituvchi sub'ektdan tashqarida bo'lgan asosiy vositalar ob'ektlari (uzoq reyslarda bo'lgan dengiz va daryo kemalari, temir yo'l harakatdagi tarkibi, avtomashinalar, kapital ta'mirlashga yuborilgan mashina va uskunalar va hokazo) doimiy ishlaydigan yoki ishchi komissiya tomonidan ular xo'jalikdan vaqtincha chiqib ketishi paytiga qadar inventarlanishi kerak.

Foydalanishga yaroqsiz va tiklab bo'lmaydigan asosiy vositalar inventarlash ro'yxatiga kiritilmaydi. Ana shu ob'ektlarga inventarlash komissiyasi alohida

ro'yxat tuzib, ularni foydalanishga topshirish vaqti va ushbu ob'ektlarni yaroqsiz holga keltirgan sabablar (shikastlanish, to'liq eskirish va hokazolar) ko'rsatiladi. Bunday ob'ektlarni hisobdan chiqarish umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zining asosiy vositalarini inventarlash bilan bir qatorda ijaraga olingan va mas'uliyatni saqlashda bo'lgan asosiy vositalar ham tekshiriladi.

Ko'rsatilgan ob'ektlar bo'yicha alohida ro'yxat tuziladi, unda ana shu ob'ektlar mas'uliyatli saqlash yoki ijaraga qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlarga havola beriladi.⁹

Agar inventaritsiya o'tkazilishi davomida ortiqcha chiqqan asosiy vositalar aniqlansa, komissiya qaroriga ko'ra, baholangan qiymat bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida balansga qabul qilinadi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarning saqlanishi va butligini ta'minlashda inventarizatsiya o'tkazishdan tashqari, buxgalteriya bo'limida maxsus jurnallar, kartochkalar va dasturiy yo'l bilan ham nazorat qilish iqtisodiy samara beradi, deb hisoblaymiz.¹⁰

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomaga asosan asosiy vositalar hisobining haqiqatda mavjudligi va ularning butligini nazorat qilish maqsadida bank tomonidan vaqti-vaqti bilan, biroq yilda kamida bir marta asosiy vositalarni inventarlash o'tkaziladi. Inventarlashni o'tkazish tartibi bank rahbariyati tomonidan belgilanadi.

Inventarlashda aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar balansga baholangan qiymati bo'yicha quyidagi tarzda kirim qilinadi:

Dt	A	165**	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i
Kt	P	45994	«Boshqa foizsiz daromadlar»

⁹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2-noyabr kungi 833-son bilan ro'yxatga olingan 19-son BHMS "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" nomlangan milliy standart

¹⁰ F. T. Abduvaxidov. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. -T.: 2007, -50 bet.

agar omborga kirim qilinsa:

Dt	A	16561	«Ombordagi asosiy vositalar»
Kt	P	45994	«Boshqa foizsiz daromadlar»

Bank xodimining aybiga ko'ra yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalarning qiymati yoki kamomad aniqlanganda ushbu asosiy vositalarning qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda aybdor va moddiy-javobgar shaxslardan undiriladi. Zarar miqdori, bank mulkiga yetkashilgan zarar uchun xodimning oddiy javobgarligi chegaralari va tartibi O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Bunda quyidagi yozuv rasmiylashtiriladi:

1) jamlangan eskirish summasiga:

Dt	P	165**	Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i
Kt	P	165**	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

2) agar unidirilishi lozim bo'lgan summa aktivning qoldiq qiymatidan katta bo'lsa:

Dt	A	19908	«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar»
Kt	A	165**	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i
Kt	P	45994	«Boshqa foizsiz daromadlar»

3) agar unidirilishi lozim bo'lgan summa avtivning qoldiq qiymatidan kichik bo'lsa:

Dt	A	19908	«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar»
Dt	A	55995	«Boshqa foizsiz xarajatlar»
Kt	A	165**	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

4) mablag'lar undirilganda:

Dt	A	10101	«Aylanma kassadagi naqd pullar»
Dt	P	29803	«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar «
Kt	A	19908	«Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar»

3.3 “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o’tkazish va rasmiylashtirish tartibi.

O’zbekiston Respublikasining 1992 yil 9-dekabr kungi 734-XII-sonli “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonun (Mazkur Qonunning yangi tahriri O’zR 26.05.2000 y. 78-II-son Qonuniga muvofiq tasdiqlangan) tasdiqlangan.

Ushbu qonunga 2014 yil 14-may kuni 372-sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni bilan o’zgartirish kiritilgan. Tijorat banklari yuqoridagi qonuning 10-moddasiga asosan majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkaziladigan tashkilotlar tarkibiga kiritilgan.

“Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o’tkazish yuqoridagi qonunga hamda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 4 noyabrda 982-son bilan ro’yxatga olingan “O’zbekiston Respublikasi banklarida auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish to’g’risida”gi nizomga asosan auditorlik tekshiruvlari o’tkaziladi.

Ushbu nizomga asosan auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo’lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirilishi shart.

Bankda auditorlik tekshiruvining maqsadi auditorlik tashkilotining bankning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborotining ishonchliligi hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligiga nisbatan fikrini xolis ifodalashidadir. Auditorlik tekshiruvini o’tkazish jarayonida auditorlik tashkiloti bankning ichki nazorati tuzilmasidagi kamchiliklar to’g’risida alohida hisobot tuzishi shart.

Tijorat banklari auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish uchun Markaziy bankning banklarda auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo’lgan auditorlik tashkilotini mustaqil ravishda tanlaydi.

Auditorlik tekshiruvini o’tkazishga malaka sertifikatiga ega auditor jalb etilishi mumkin, agar u bilan mehnat shartnomasi tuzilgan va u auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo’lsa, yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy shartnomasini tuzgan bo’lsa.

Bank va auditorlik tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma va har qanday bitimlar auditorlik hisobotini Markaziy bankka berishni cheklash bo'yicha bandlarni ko'zda tutmasligi lozim.

Banklarda auditorlik tekshiruvlari har yili yillik hisobot bo'yicha o'tkaziladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq davlat muassasalari talabiga ko'ra yoki bankning o'z tashabbusi bilan butun bank faoliyati hamda alohida masalalar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Auditorlik tashkilotlari banklar faoliyati tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobotning to'g'riligini tasdiqlaydilar (yoki tasdiqlamaydilar), shuningdek banklar yillik hisobotga ilova qilinadigan rasmiy auditorlik xulosalarini beradilar. Auditorlik xulosasisiz bank yillik hisoboti Markaziy bank tomonidan qabul qilinmaydi va matbuotda chop etilmaydi.

Auditorlik xulosasining titul varag'ida auditorlik tashkilotining to'liq nomi, banklarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikat raqami, mazkur xulosa berilayotgan bankning to'liq nomi ko'rsatilishi shart. Auditorlik xulosasining titul va keyingi varaqlari auditorlik tashkilotining malaka sertifikatiga ega va mazkur bankda auditorlik tekshiruvini o'tkazishga mas'ul bo'lgan auditorlari, auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolanadi hamda auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanadi.

Bank hisobotlari bo'yicha auditorlik xulosasi Markaziy bankning auditorlik tekshiruvi o'tkazish bo'yicha talablariga muvofiq shaklda tuzilishi va auditorlik tashkilotining fikrini aniq ifodalashi shart.

Auditorlik tashkilotining fikri auditorlik tekshiruvi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga va Audit xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazilganligini bildirishi lozim. Auditorlik tekshiruvi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga va Audit xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazilganligi haqida fikr bildirilmagan auditorlik hisobotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mazkur Nizom talablarini qondirmaydi deb baholanib, qabul qilinmaydi. Markaziy bank:

- auditorlik tekshiruvlari mazmuni va ko'lamini yuzasidan qo'shimcha talablar qo'yish;

- banklar, ularning filiallari hamda bank bilan uzviy bog'langan (affillangan) yuridik shaxslar faoliyatini Markaziy bankning nazoratchilari va Markaziy bank tomonidan tayinlangan, banklarning har qanday ma'lumotlari bilan tanishish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirish huquqiga ega.

Markaziy bankning banklarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo'lmagan auditorlik tashkiloti yoki auditor amalga oshirgan bank auditini noqonuniy hisoblanadi va bu faoliyatdan olingan barcha daromadlar davlat byudjetiga o'tkazib yuboriladi.

Auditorlik tashkiloti tomonidan bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda auditorlik tashkiloti tarkibida malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorning bo'lishi shart.

Auditorlar tomonidan "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni auditdan o'tkazish uchun avvalo asosiy vositalarni audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ▽ asosiy vositalarni birlamchi aks ettirish va hisobga olish;
- ▽ asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish;
- ▽ garovga egalik huquqini qo'llash (garovga qo'yilgan mol-mulkni undirish) yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olish;
- ▽ asosiy vositalarni qayta baholash;
- ▽ asosiy vositalarning amortizatsiyasi (eskirishi);
- ▽ asosiy vositalarning chiqib ketishi va sotilishi;
- ▽ asosiy vositalarning bosh bank va uning filiallari o'rtasidagi harakatini hisobga olish;
- ▽ asosiy vositalarni inventarlash;
- ▽ asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;

- ▽ buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan asosiy vositalar va haqiqatdan ham mavjud va ular bo'yicha hisoblashlar haqiqatdan ham ro'y berganligiga ishonch hosil qilish;
- ▽ asosiy vositalarning barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;
- ▽ asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda arifmetik amallar to'g'ri bajarilganligini o'rganish;
- ▽ balans hisobotida asosiy vositalar haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash;
- ▽ balans hisobotida debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'ri guruhlashtirilganligiga va agar zarurat bo'lsa, ular bo'yicha zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar ilovalarda to'liq va to'g'ri keltirilganligiga ishonch hosil qilish.

Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalariga muvofiq tekshiruvni etti yo'nalishga ajratish mumkin:

- ∠ asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining auditi;
- ∠ asosiy vositalar harakatining auditi;
- ∠ asosiy vositalar bo'yicha eskirish to'g'ri hisoblanganligining auditi;
- ∠ asosiy vositalar qabul qilinishi bo'yicha operatsiyalarni tekshirish;
- ∠ asosiy vositalar tugatilishi to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish;
- ∠ asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlar asoslanganligini tekshirish;
- ∠ asosiy vositalarga oid operatsiyalar to'g'ri soliqqa tortilganligini tekshirish.

YUqoridagi vazifalarni amalga oshirish asosiy vositalar yuzasidan audit dalillariga asoslanadi. Asosiy vositalarni audit qilish vaqtida foydalaniladigan audit dalillari qabul qilingan hisob siyosatiga bog'liqdir.

Auditorlar ishni puxta rejalashtirishlari, tanlab olingan operatsiyalar bo'yicha ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun bankda moliyaviy yil yakunlanmasdan turib, ishga kirishishlari lozim. Oraliq vaqtda dastlabki tahliliy

ma'lumotlar tayyorlanadi, ichki nazoratning samaradorligi bo'yicha ilk xulosaga kelinadi va hisob varaqlardagi qoldiqlar tekshirib chiqiladi. Buning ustiga oraliq vaqtdagi o'rganishlar auditorlarga yillik tekshiruvlarning samarali dasturini tanlab olishiga imkon beradi. SHunday qilib, auditorlik tekshiruvlari faqat tegishli usul va standartlarni ish faoliyati davomida qo'llash emas, balki hisobotlar bo'yicha xolis, mustaqil fikr-mulohaza bildirish hamdir.

Auditorlik xulosasi to'rt xil bo'ladi:

- **Izohsiz (ijobiy) fikr** — bank moliyaviy hisoboti barcha jihatlar bilan Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga mos ravishda haqqoniy taqdim etilgan.
- **Izoxli fikr** — ayrim sabablar izohli fikr bildirishga ta'sir ko'rsatsa-da, moliyaviy hisobot Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga mos ravishda haqqoniy taqdim etilgan. Auditor bu sabablarni ko'rsatadi va ularning moliyaviy hisobotlarga ko'rsatgan ta'sirini izoxdab beradi.
- **YOmon fikr** — moliyaviy hisobotlar Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga mos ravishda haqqoniy taqdim etilmaganda bildiriladi. Auditor bu holda o'zi-ning barcha yomon fikrlari sabablarini ko'rsatishi shart.
- **Fikr bildirishdan voz kechish** - bu holda auditor moliyaviy hisobotga fikr bildirish uchun auditni yetarlicha to'la hajmda amalga oshirmagan bo'ladi. Bu holda auditor auditning nega xalqaro standartlarga muvofiq kelmasligi sabablarini ko'rsatishi talab etiladi.

Moliyaviy hisobotlarning haqqoniylikiga auditor faqat o'z fikri uchun mas'uldir. Bank rahbariyati esa, auditorlik tekshiruvlariga tortilgan moliyaviy hisobotlar-ni tayyorlash, kitob va qaydlarning yuritilishi uchun javobgardir.

Tajribada auditorlar va buxgalterlar moliyaviy hisobotlarning haqqoniylikiga berilgan kafolat darajasiga qarab, turlicha xulosalar bildirishi mumkin. eng ishonchli kafolatlarni standart ijobiy hisobotlar bera oladi. Standart ijobiy hisobotlar shaklidagi har xil o'zgarishlar puxta kafolatni ta'minlay olmaydi. Bunday o'zgarishlar Djek K.Robertsonning «Audit» kitobida aytilishicha, cheklangan, o'zgargan va izohli auditorlik standartlari deyiladi.

Hisobotlar haqqoniyligiga kafolat bo'lmasa, bu xulosa berishdan voz kechishni anglatadi. Bunday hollarda auditor moliyaviy hisobotlar haqida biror xulosaga kelmaganini tasdiqlaydi.

Auditorlik tekshiruvlari maqbul xarajatlar bilan o'z vaqtida o'tkazilishi kerak. Bu vaqq va moliyaviy chegaralar tekshirish jarayonida muayyan ahamiyat kasb etsa-da, auditorlik hisobotlarida ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Bu hisobotlar yetarlicha ishonchli bo'lgan axborotlarga tayangani bilan, sifat va son jihatdan axborotlarni olish vaqti va mablag'iga qaramay mutlaqo ayriqha baholanadi. Hisobotlar tuzilish paytida yetarlicha axborot to'planmasa, xulosa ijobiy baholanishi mumkin emas. Odatda, auditorlar moliyaviy hisobotlar haqida xulosa chiqarayotganda salbiy xulosa berishi mumkin emas, chunki ularning asl maqsadi-bankning operatsiyalari natijasi va moliyaviy holatini ko'rsatishdan iborat.

Standart ijobiy xulosa uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

- 1) kirish qismi;
- 2) asosiy qism;
- 3) auditorlik xulosasi

Kirish qismida auditorlik tekshiruvlari aniq moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'tkazilgani ko'rsatiladi. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotlarga axborotlarni tayyorlashda tekshirilayotgan bank rahbariyatining va auditorlik xulosasi mazmuni uchun auditorning mas'uliyati qayd etiladi. Bu qism tekshirish sifati va ko'lamini aniqlash uchun juda muhimdir.

Asosiy qismda auditorlar nafaqat o'z xulosalarini, balki o'z ishining mazmunini ham bayon etadi. Auditorlik tekshiruvlari davomida auditor tomonidan olib borilgan ishlar xarakteri haqida ma'lumot beriladi. Hisobotning bu qismi sifat va tekshirish ko'lamini ochishda juda muhimdir.

Asosiy qismda tekshiruv davomida umumiy ish standartlariga rioya etilgani, jumladan,

- a) auditorlar tegishli tayyorgarlik va malakaga ega ekanligi;
- b) auditorlar mustaqilligi;

- v) tekshiruv yuksak malaka darajasida bajarilgani;
- g) tekshiruv oldindan rejalashtirilgan va uni o'tkazish nazoratga olingani;
- d) ichki nazorat va audit yaxshi o'rganilgani va baholangani;

e) ishonchli axborotlar yetarli miqdorda olingani aytib o'tiladi. Bordini tekshirish davomida bir yoki bir nechta standartlarga rioya etilmagan bo'lsa, asosiy qismga qaysi standartga rioya etilmagani ko'rsatiladi. Chunki bu hol xolislikka putur yetkazishi, axborotning ishonchli emasligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Tajribalar ko'rsatishicha, auditorlar ba'zi hollarda, deylik, asosiy qism chegaralangan bo'lsa, standart shakllarga o'zgartirishlar kiritadilar.

Asosiy qismda auditorlik tekshiruvlarining o'zi haqida umum tomonidan qabul qilingan auditorlik standartlariga suyanan holda asosiy xarakteristikalar beriladi. Shuningdek, auditorlar bank rahbariyati tomonidan qo'llanilayotgan buxgalteriya tamoyillari va taqdim etilgan barcha moliyaviy hisobotlarga umumiy baxr beradilar. Asosiy qism tekshirish davomida moliyaviy hisobotlar bo'yicha xulosa berish uchun yetarlicha ishonchli axborot olingani haqidagi asosli fikr bilan tugatiladi.

Shu o'rinda buxgalteriya hisobi xususida to'xtalib o'tish joiz tuyulmoqda. Buxgalteriya hisobi-bu iqtisodiy axborotlardan foydalanuvchilarga tahlil qilish va qaror qabul qilishga imkon beruvchi aniqlash va o'lchash jarayonidir. Buxgalteriya hisobidan bank menejerlari, boshqaruv kengashi, aktsiyadorlar, salohiyatli investorlar, kreditorlar, Markaziy bank va bank xizmatchilari foydalanadilar. Binobarin, buxgalterlar operatsiyalar natijalarini aniq va puxta yozib borishlari zarur. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari undan foydalanuvchilar uchun tushunarli, ssuda berish yoki bermaslik bo'yicha qaror qabul qilinayotganda dolzarb, xatolardan xoli, ya'ni haqqoniy bo'lishi, aktivlardagi summalarni aniqlash usullari boshqa banklar foydalanadigan usullar bilan bir xilligi taqqoslanadigan darajada bo'lishi lozim.

Muomalalarni amalga oshirishda e'tibor ularning shunchaki yuridik jihatdan to'g'ri bo'lishiga qaratilmasligi, balki ularning iqtisodiy realligi va mazmuni ham

bir-biriga mos kelishi qayd etilishi lozim. Chunki operatsiyalar mazmuni amalda har doim ham yuridik shakli bilan muvofiq kelavermaydi.

Auditorlik xulosasida auditorning moliyaviy hisobot haqidagi fikri aks etadi. Bundan tashqari, bu standartlarga joriy davrda ham avvalgi davrdagidek standartlarga rioya qilingan-qilinmagani, ma'lum bo'lgan axborotlarning moliyaviy hisobotlarga to'g'ri kelish-kelmasligi, moliyaviy hisobotlar haqida yaxlit xulosaga kelgish yoki kelmagani sabablari ko'rsatiladi.

Auditor hisobotni tayyorlayotganda nomoddiy axborotni unchalik ahamiyatga ega emas, deb e'tiborsiz qoldirishi ham mumkin. Agar bu sira axborotlar moliyaviy hisobotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatsa, auditorlik hisoboti standartlariga o'zgartirishlar kiritish zarur.

Umuman, auditorlik hisoboti mazmuni to'plangan materiallarga qarab belgilanadi. Agar ijobiy hisobot tuziladigan bo'lsa, standart shakllarga hech qanday o'zgartirishlar kiritish talab etilmaydi. Auditorlik standartlariga muvofiq auditorlarning ijobiy xulosalarida moliyaviy hisobotlar yoki boshqa axborotlar umumiy tomonidan qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga mos ravishda takdim etilayotgani ko'rsatilishi shart. Salbiy xulosada moliyaviy axborotlar moliyaviy ahvol, operatsiyalar natijasi va moliyaviy ahvolning o'zgarishi umum tomonidan qabul Qilingan buxgalteriya tamoyillariga mos kelmasligi tasdiklanishi shart. Auditorlar salbiy xulosa berishi uchun zarur axborotlarga yetarlicha ega bo'lishlari kerak. Salbiy xulosa bildirilganda barcha sabablar tushuntirish qismlarida aks etmog'i lozim.

Hulosa va takliflar.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda yaratilgan sharoitlar natijasida boshqa ko'pgina tarmoqlar singari bank tizimi ham rivojlanib kelmoqda. SHunisi quvonarliki, mustaqillikka erishilgandan keyingi qisqa davr ichida tijorat banklari jahon andozalariga mos keladigan rivojlanishga ega bo'ldilar.

Bank tizimini qo'llab-quvvatlash bugungi kunda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonshli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi. Umumdavlat dasturini hayotga tatbiq etish iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va bank tizimida daromadlarini oshirishda qanchalik o'ta muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalar yangiliash ishlab chiqarish fondlarini kengaytirish va ularning buxgalteriya hisobini me'yorlashtirish bo'yicha xujjatlarda izox sifatida "Asakabank"da asosiy vositalar hisobining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, buxgalteriya hisob ma'lumotini qayta ko'rib chiqishi va uni hisobida ko'rsatish ta'kidlangan.

Demak, «O'zbekiston Respublikasi Banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» yo'riqnomada bu talablar ko'rsatib o'tilgan. Bunday tadqiqot jarayonida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Hozirgi kunda tijorat banklari buxgalterlari asosiy vositalar buxgalteriya hisobi milliy standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish darkor deb o'ylaymiz. Shuningdek, buxgalterlar asosan quyidagilar alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- asosiy vositalar hisobining to'g'ri yuritilishi va bank moliyaviy hisobotlarining xaqqoniy;
- bank moliyaviy-xo'jalik faoliyati baholashning to'g'riligi va buning imkoniyati mavjudligi (asosiy vositalar, nomoddiy aktiv (intellektual mulk)larni baholash);

- asosiy vositalarni boshqarishning yanada samaraliroq tizimini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- asosiy vositalar hisobida "muammoli vaziyat"ni aniqlash maqsadida daromadlar va xarajatlar tarkibini tahlil qilib borish (asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyatdan daromadlar va qilingan xarajatlar);
- tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining maqsadi va vazifalari;
- "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish optimallashtirish (soliq stavkalarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar);
- «Asakabank» Farxod filialida garovga egalik huquqini qo'llash yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olish bankning iqtisodiy faoliyati holati to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq tushunarli shaklda va qisqa muddatlarda taqdim etib borish (moliyaviy hisobot shakllarini soddalashtirish).

Banklarda xalqaro standartlar asosida hisobot davridagi "Asakabank" Farxod filialida asosiy vositalarni qayta baholash hisobi, amortizatsiyasini hisoblash tartibini muvofiqligi ta'minlash. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o'rtasida bevosita bog'liqlikni o'rnatish qiyin bo'lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanishi zarur. Masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlari taalluqlidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan: Filialda mavjud bo'lgan ma'nan eskirgan asosiy vositalarni balansdan chiqarib, ularning o'rniga yangi asosiy vositalarni xarid qilish bo'yicha respublika bankga murojaat qilish:

Ikkinchidan: Amalda bo'lgan asosiy vositalar bo'yicha, jumladan signalizatsiya bo'yicha yangi schyotlarni ochish kerak. Chunki signalizatsiyani narxi eng kam oylik ish haqini ellik barobaridan kam.

Uchinchidan: Asosiy vositalarga o'z vaqtida eskirish va qayta baholash ishlarini amalga oshirish zarur:

To'rtinchidan: Asosiy vositalarni saqlanishi yuzasidan har bir xodimni javobgarligini aniq belgilash kerak.

“Asakabank” Farxod filialida moliyaviy hisoboti asosiy vositalar bo’yicha hisobotni tayyorlash va takomillashtirish natijasida samaradorlikka erishishdir.

Bildirilgan xulosa va takliflarda bizning fikrimizcha, “Asakabank” Farxod filialida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yanada takomillashishga yordam beradi deb, hisoblaymiz va bu moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvshilar uchun zarur ma’lumotlar bilan yanada tulik va ishonshli ta’minlanishlariga yordam beradi.

Keltirilgan takliflarni “Asakabank” Farxod filialining asosiy vositalarni bo’yicha hisobga olish bilan bog’liq tegishli karorlarni to’g’ri kabul qilinishini ta’minlaydi

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2001.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. - T.: 2016 yil 30 mart.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1995y.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Prezident asarlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 14 dekabrda R-3539-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat Dasturi
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida"gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora- tadbirlari to'g'risida» gi Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 aprelda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1317- sonli Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli Qarori

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016 yil 18 yanvar..
12. Karimov I. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 bet

Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

13. "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'tttimcha. chor- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4057-sonli Farmoni. -T.: 28.11.2008y.
14. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1301-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to'g'risida» nizom.
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 24 iyulda 1602-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida kassa amallarining buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari».
16. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 30 noyabrda 1528-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida» nizom.
17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1431-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida qimmatbaho metallar, toshlar va tangalarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida» nizom.
18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 27 dekabrda 1648-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida» nizom.
19. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 30 yanvarda 1306-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida» nizom.

- 20.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida» yo'riqnoma.
- 21.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida» yo'riqnoma.
- 22.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1300-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida grantlarning buxgalteriya hisobi to'g'risida» nizom.
- 23.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan ro'yhatga olingan «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi».
- 24.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 3 sentyabrda 1270-son bilan ro'yxatga olingan «Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to'g'risida» nizom.
- 25.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 4 aprelda 2570-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida» nizom.
- 26.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 14 fevralda 1545-son bilan ro'yxatga olingan «Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida» nizom.
- 27.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 martda raqami 2021-2 bilan ro'yxatdan o'tgan «Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida»gi nizom.
- 28.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 3 iyunda 2465-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi» nizom.

- 29.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1301-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to'g'risida» nizom.
- 30.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 4 noyabrda 982-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida"gi nizomga asosan auditorlik tekshiruvlari o'tkaziladi:
- 31.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 25 noyabrda 405-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga asosan ichki auditor lavozimiga talab qo'yilgan.
- 32.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 20 aprelda 992-1-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi yangi taxrirdagi nizomga asosan ichki auditor lavozimiga talab qo'yilgan.

Asosiy adabiyotlar

- 33.Alimov I.I. Hojimatov R.X., Matgoziyev H.H.. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari O'quv qo'llanma. T.: TDIU 2011. 244 b
- 34.Alimov I.I. Xusanboyev A.G'. Ikramov A.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari O'quv qo'llanma.T.:TDIU 2010. 214 b.
- 35.F.T.Abduvaxidov. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. -T.: 2007, -164 bet.
- 36.Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. T.: TDIU 2010 yil., 192 bet.
- 37.Abduvaxidov F. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi./ O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012 y. 282 bet.
- 38.Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010 yil, 280 bet.
- 39.Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010 yil, 280 bet.

Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

40.«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. -T.: 2012-2015 yillar

41.«Bozor, pul va kredit» jurnal. -T.: 2014-2015 yillar

42.T.: O'zbekiston, 2015-2016.

INTERNET SAYTLARI

43.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti www.mf.uz

44.O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti www.soliq.uz

45.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti www.stat.uz